

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SHAHARSOZLIK KODEKSINI
TASDIQLASH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 26-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 6-yanvarda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining
Shaharsozlik [kodeksi](#) tasdiqlansin.

2-modda. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 353-II-sonli [Qonuni](#) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 63-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini amalga kiritish to‘g‘risida”gi 354-II-sonli [qarori](#) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 64-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 621-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 5, 90-modda) [XXVII bo‘limi](#);

4) O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 7-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-39-sonli [Qonuni](#) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 7, 369-modda);

5) O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-59-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda) [31-moddasi](#);

6) O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-278-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-yil, № 1, 1-modda) [13-moddasi](#);

7) O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'RQ-446-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 9, 510-modda) [53-moddasi](#);

8) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-yanvarda qabul qilingan "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-456-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 1, 1-modda) [27-moddasi](#);

9) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-533-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 4, 199-modda) [5-moddasi](#).

3-modda. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda Kodeksning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

4-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini Kodeksga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari Kodeksga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

5-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Davlat xaridlari subyektlarining mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlarga nisbatan Kodeksning [32-moddasi](#) 2022-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 22-fevral,
O'RQ-676-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021-y., 03/21/676/0142-son)

